



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Yunusova S.B.

Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik tizimini tashkil etish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tobora katta rol o'ynaydi. Maqolada davlat-xususiy sheriklikning xorijiy tajribasi tahlil qilinib, O'zbekistonda uni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, davlat xaridi, xususiylashtirish, xalqaro institutlar, moliyalashtirish, xorij tajribasi, infratuzilma loyihalari, me'yoriy-huquqiy baza, jahon amaliyoti, davlat-xususiy sheriklik instituti, investitsiya siyosati.

FOREIGN EXPERIENCE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AND POSSIBILITIES OF APPLICATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Yunusova S.B.

Tashkent institute of finance

Annotation: The Experience of developed countries shows that the establishment of a public-private partnership system plays an increasing role in socio-economic development. The article analyzes the foreign experience of public-private partnership and offers recommendations for its implementation in Uzbekistan.

Keywords: public-private partnership, public procurement, privatization, international institutions, financing, foreign experience, public-private partnership institute, investment policy.

1. Kirish.

Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha byudjet xarajatlarini qisqartirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish sharoitida xususiy sarmoyalarni jalb qilish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashning asosiy vositasi sifatida davlat-xususiy sheriklik asosiy rol o'ynaydi. Chet davlatlarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi uzoq vaqtdan beri amalga oshirilib kelinmoqda va doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar kabi O'zbekistonning o'ta zarur infratuzilma loyihalariga sarflashi mumkin bo'lgan mablag'lari cheklangan, xususiy sektor kapitali va tajribasini tadbiiq qilish orqali mamlakat yirik infratuzilma loyihalarini rivojlantirishni rag'batlantirishi va shu bilan birga biznes muhiti va aholining turmush sifatini yaxshilashi mumkin¹.

Byudjet mablag'lari taqchilligi sharoitida davlat organlari infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish imkonini beruvchi yangi manbalarni izlashga urunadilar. Bugungi kunda bunday muammolarni hal qiluvchi omil sifatida davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan loyihalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda yig'ilgan xalqaro tajribalar ko'rsatib turibdiki, iqtisodiy rivojlanish va davlat (jamiyat) mulkini boshqarish samaradorligini oshirish uchun resurs bazasini kengaytirish va foydalanilmayotgan resurslarni mobilizatsiya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri davlat-xususiy sherikchiligi hisoblanadi.

¹ <https://www.mf.uz/uz/news-mf-jx/item/418-418.html>

2. Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida davlat-xususiy sherikligining xorij tajribasi yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik, ular quydagilardan iboratdir. Misol uchun, Ivanov (2018) tomonidan rivojlangan mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda, davlat va xususiy tuzilmalar o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyati - loyihani ishlab chiqish, amalga oshirish yoki ishlatish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni taqsimlash va har bir davlat tomonidan davlat-xususiy sherikligini tashkil qilishda yondashuvlari va individualligi ochib berilgan.

Boldyrev (2018) tomonidan infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish mohiyati, funktsiyalari va jahon tajribasini o'rganib chiqiladi va o'z maqolasida davlat birlashmalari va tashkilotlari uchun me'yoriy-huquqiy bazani yaratish amaliyoti muhokama qilinadi, ularning maqsadi davlat xizmatlari ko'rsatish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida xususiy aloqalarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, Evropa Ittifoqi, AQSh va BRIKS mamlakatlari hududida ushbu mexanizm bilan ishlash tajribasi tahlil qilingan va zamonaviy dunyoda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishining dolzarb tendentsiyalarini aniqlab beradi.

Kelbax va Sigovalar (2015) tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va ularni resurslar bilan ta'minlashning xalqaro amaliyoti tahlil qilingan: unda turli darajadagi iqtisodiy rivojlanish darajalariga ega bo'lgan mamlakatlarda GES loyihalarini tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi tasvirlangan, shuningdek, amalga oshirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari ochib berilgan Buyuk Britaniya, Avstraliya, Irlandiya, Braziliya va Xitoy kabi davlatlarda davlat xususiy sheriklik bo'yicha tajribalari o'rganilgan.

Krykanov (2017) tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini baholashning tarkibiy qismi - loyihaning maqsadga muvofiqligini baholash muhokama qilinadi. Samaradorlikni baholashning ushbu elementi rivojlangan davlat-xususiy sheriklik instituti bilan xorijiy davlatlarning benchmarking amaliyoti formatida ko'rib chiqiladi. Loyiha taklifini ko'rib chiqish jarayonida davlat sherigi tomonidan hisobga olinadigan barcha omillarni hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy baho uni qo'llashning eng ambitsiyali formatida taqdim etiladi. Baholashning har bir elementi uni chet elda qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi va uni amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich tavsiyalar beriladi. Ushbu omillar bilan bog'liq bo'lgan yuqori xatarlar sababli ekologik va ijtimoiy maqsadga muvofiqligini baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Agazaryan (2016) o'z ilmiy ishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning xalqaro tajribasi iqtisodiy rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar misolida tahlil qilgan. Shuningdek, o'z ishida Rossiyada davlat-xususiy sheriklik yondashuvlarini amaliy tatbiq etish uchun eng qulay shart-sharoitlarni aniqlash uchun eng yaxshi jahon tajribalarini aniqlashga qaratilgan. O'z maqolasida infratuzilma, energetika, suv ta'minoti, transport, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari va boshqa sohalardagi loyihalarni amalga oshirishda xususiy va davlat muassasalari ishtirokida rivojlantirish va takomillashtirish uchun mablag' jalb qilish imkonini beradigan bir qator muhim xulosalar keltirilgan va bu hamkorlik, xususiy sektor bilan davlat birgalikda mamlakatlarni va mintaqalarni kompleks rivojlantirish uchun yangi yechimlarni bo'lishiga e'tiborini qaratgan.

Andreeva va boshqalar (2014) tomonidan dunyoning turli mamlakatlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilingan. Mamlakat taraqqiyoti darajasi va tarmoqlarning davlat-xususiy sheriklik loyihalariga sarmoya kiritish ustuvorligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlaganlar. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi pastligi sabablari ochib berganlar.

Yuriyeva (2020) o'z ilmiy ishlarida yuqori darajadagi noaniqlik sharoitida davlat va xususiy ishtirokchilar o'rtasidagi sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Bunday o'zaro hamkorlik qo'shimcha xususiy sarmoyalarni, ilg'or texnologiyalarni, kasbiy vakolatlarini va sheriklarning tajribasini jalb qilishning samarali vositasidir. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tahlili (tashkiliy shakli, qiymati, xususiy investitsiyalar hajmi va ularni qaytarish modeli va boshqalar) amalga oshirilgan. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining turli manfaatdor tomonlari uchun imtiyozlar shakllarida loyihalarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi asosiy omillar ko'rib chiqilgan. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining soni, qiymati va tarmoq tuzilishini tahlil qilgan va davlat-xususiy sheriklik

amalaliyotni takomillashga bag'ishlangan yondashuvlarini batafsil yoritib berishga etiborlarini qaratganlar.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Davlat-xususiy sherikligining xorij tajribasi va O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik amalaliyotni takomillashtirishda qo'llash bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilishning ushbu shaklini rivojlantirish bo'yicha etakchilar: Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va AQSh. Har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari bor. Aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar davlat-xususiy sheriklik mexanizmining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda va muayyan sohada (yo'llar qurish va rekonstruksiya qilish, ta'lim, Sog'liqni saqlash). Davlat va xususiy tuzilmalar o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyati - loyihani ishlab chiqish, amalga oshirish yoki ishlatish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni taqsimlash. Har bir davlat davlat-xususiy sherikligini tashkil qilishda yondashuvlari va individualligi bilan ajralib turadi.

Davlat-xususiy sheriklik bu xususiy sektorning boshqaruv tajribasi va mablag'larini jalb qilish, xatarlarni to'g'ri taqsimlash orqali davlat xizmatlari sifati va infratuzilmasini yaratish bo'yicha davlat va xususiy sherik o'rtasidagi yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan uzoq muddatli shartnomadir. DXShning an'anaviy davlat xaridi va xususiylashtirishdan asosiy farqlari shundaki, riskning tomonlar o'rtasida o'zaro taqsimlanishi (asosiy riskning ayrim qismi davlat sektorida saqlanib qolishi, muayyan darajadagi qolgan risklar xususiy sektor zimmasiga o'tkazilishi), obyekt shartnoma amal qilish muddati tugashi bilan davlatga topshirilishi, shartnoma muddatida davlat sherigi xususiy sherikni yer bilan ta'minlashi va boshqalar.

1-jadval.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi faoliyat yo'nalishlari

| | |
|-------------------------------|-------------------------|
| - Elektroenergiya | - Qishloq xo'jaligi |
| - Shamol energiyasi | - Jamoat transporti |
| - Avtomobil yo'llari | - Sport |
| - Ta'lim | - Temir yo'l transporti |
| - Logistika | - Aviatsiya |
| - Sog'liqni saqlash | - Turizm |
| - Uy-joy kommunal xo'jaligi | - Madaniyat |
| - Chiqindilarni qayta ishlash | |

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotning ko'pchilik sohalarida keng foydalanilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik yordamida investitsiyalar yo'l infratuzilmasi, aeroportlar, temir yo'llar, qishloq xo'jaligi, ta'lim, tibbiyot sohalariga yo'naltirilgan. Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha duvoda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH peshqadamlik qilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari boshqa mamlakatlarda ham rivojlanmoqda, MDH mamlakatlarida bunday loyihalar Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonda rivojlanmoqda².

Dunyo mamlakatlari tarixi davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarni tashkil etish namunalariga boy bo'lib, dunyoning bir qancha mashhur yirik obyektlari ham shu namunalar qatoriga kirgan. Misol uchun Parijdagi Eyfel minorasi, Misrning Suvaysh kanali, Nyu-Yorkdagi Bruklin ko'prigi va boshqalar.

Ko'pgina davlatlarda DXSH xususiyatlarini o'rganuvchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularni quyidagi 3 guruhga bo'lib o'rganamiz.

2-jadval.

² Aniq.uz rasmiy sayti <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/dunyoda-davlat-xususiy-sheriklik-buyicha-qaysi-davlatlar-etakchi>

DXSH xususiyatlarini o'rganuvchi tashkilotlar tasnifi (Gafurova, 2013)

| | |
|---|--|
| I guruh (DXSH ning xususiyatlarini xalqaro darajada o'rganuvchi xalqaro darajadagi institutlar) | Yevropa davlat-xususiy sherikligi ekspertlar markazi (Yevropa PPP Expertise Centre) (<i>European Investment Bank, 2020</i>) |
| | AQSh davlat-xususiy sheriklik Milliy Kengashi (Davlat The National Council for Public-Private Partnerships(<i>National Council for Public-Private Partnerships, 2020</i>)) |
| II guruh (DXSH ning xususiyatlarini xalqaro va hududiy darajada o'rganuvchi xalqaro darajadagi institutlar) | Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR, IBRD); |
| | Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETT, EBRD); |
| | Islom taraqqiyot banki (ITB, valyuta jamg'armasi); |
| | Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (MAR, IDA) va boshqalar. |
| III guruh (DXSH ning xususiyatlarini milliy darajada o'rganuvchi institutlar) | Hindiston sanoatni rivojlantirish banki (IDBI) |
| | Xitoy taraqqiyot banki (CDB) |
| | Germaniya taraqqiyot banki (KfW) |
| | Xorijiy xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIC) |

Bunday tuzilmalarning asosiy sa'y-harakatlari transport, energiya muhandislik sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlashdir. Aviasozlik, raketa va kosmik majmualar sohasidagi loyihalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ba'zi institutlar qishloq xo'jaligi, kema qurilishi, metallurgiya va boshqa loyihalarni moliyalashtiradilar.

So'nggi 30 yilda 130 dan ortiq mamlakatda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi faol joriy etilayotgani kuzatilmoqda. Jahon banki ma'lumotiga ko'ra, mazkur mexanizm yordamida infratuzilma loyihalariga xususiy investitsiyalarning qariyb 15-20 foizi jalb qilinayapti³.

Yevropada davlat-xususiy sherikligini joriy etish bo'yicha Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya asosiy yetakchilar hisoblanadi. Umuman olganda, Yevropa ittifoqi bo'yicha 2010-yildan 2016-yilga qadar umumiy qiymati 111 mlrd. yevro miqdorida 541 ta davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirildi. Bunda ta'lim (156 ta loyiha) va transport (111 ta loyiha) sektorlari davlat-xususiy sheriklik loyihalaridagi ustuvor tarmoqlardan bo'lgan⁴.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda bir nechta mamlakatlarni tarjibalari va ularda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan loyihalarni keltirib o'tamiz. Ulardan birinchisi Xitoy davlatidir. Xitoy hukumati davlat infratuzilmasi va xizmatlarini ko'rsatishda xususiy investorlarning ishtirokini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashda faol munosabatni namoyish etmoqda. Xitoyda davlat xususiy sherikligi uchun katta investitsiya imkoniyati mavjud. Katta iqtisodiy o'sish va infratuzilma uchun katta talabni hisobga olgan holda, Xitoy kelajakda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarini amalga oshirishni davom ettiradi. Quyidagi 3-jadvalda biz Xitoyda so'nggi 2020 yilda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalarni keltirib o'tamiz.

3-jadval.

Xitoyda 2020 yilda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalar (mln AQSH dollarida)⁵

| LOYIHA NOMI | SEKTOR | AMALGA OSHIRILGAN YILI | INVESTITSIYA (mln AQSH dollarida) |
|---|----------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Fenhe suv ombori milliy avtomagistrali 241 bo'limi va viloyat avtomagistrali Lanma liniyasi | Yo'llar | 2020 yil | 570,00 dollar |
| Xi'an maishiy chiqindilarni yoqib elektrga aylantirish stantsiyasi | Elektr / yo'q qilish | 2020 yil | 226,76 dollar |
| Linyang Grid-Parity Solar | Elektr | 2020 yil | 170.00 dollar |
| Xinghe xiyoboni | Yo'llar | 2020 yil | 169,45 dollar |
| Jintan tumanidagi kanalizatsiya | Suv va | 2020 yil | 145.93 dollar |

³ Minbar.uz (2019) rasmiy sayti ma'lumotlari <https://demo.minbar.uz/uz/post/davlat-xususiy-sherikligi-ozbekiston-va-evropa-miqyosida>

⁴ Minbar.uz (2019) rasmiy sayti ma'lumotlari <https://demo.minbar.uz/uz/post/davlat-xususiy-sherikligi-ozbekiston-va-evropa-miqyosida>

⁵ <https://pppknowledgelab.org/guide/sections/83-what-is-the-ppp-reference-guide>

| | | | |
|---|----------------------|----------|---------------|
| tozalashga qo'shilish loyihasi | kanalizatsiya | | |
| Jining Yanzhou chiqindilarni energiyaga aylantirish zavodi | Elektr | 2020 yil | 115,55 dollar |
| Chuxiong Yi avtonom prefekturasi, Chuxiong shahri, suv kanalizatsiya tozalash inshootlari | Suv va kanalizatsiya | 2020 yil | 112.00 dollar |
| Pingxiang City kanalizatsiya tozalash inshootlari va quvur tarmog'i | Suv va kanalizatsiya | 2020 yil | 99,98 dollar |
| Zhangjiu WtE zavodi II bosqich | Elektr | 2020 yil | 91,40 dollar |
| Shenjiu chiqindilarni energiya bilan ta'minlash loyihasi | Elektr | 2020 yil | 91,04 dollar |

3-jadvaldan shuni aytishimiz mumkinki, Bugungi kunda Xitoyda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriyotgan loyihalari yo'l qurulishi, elektor-energiya va toza ichimlik suvi va kanalizatsiyasini yangilash loyihalari hisoblanadi.

Ikkinchi ko'rib chiqadigan davlatimiz Malayziya davlati hisoblanadi. Malayziyada yirik infratuzilma loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish 1980-yillarda joriy qilingan. Malayziya hukumati ushbu vositadan infratuzilma va davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun samarali foydalangan. Biroq, xavflarni aniqlash va boshqarishdagi muammolar tufayli bir nechta davlat-xususiy sheriklik loyihalarida kelishuvlariga erishilmagan (*Usman Ahmad, 2017*). Ular bu muammoni hal qilish uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalarida uchurashi mumkin bo'lgan kritiklikka asoslangan xavf omillarini saralashga qaratilgan. Xatarlarni saralash uchun, respondentlarga matritsa berilgan va xatarlarni taqsimlashda foizli usul ishlatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 44 ta xavf omilidan 31 tasi juda muhim, ulardan 5 ta xavfli xavf omillari xususiy sektorga ajratilishi kerak. Shu bilan birga, xususiy va davlat sektorining xatarlarni jiddiy ravishda qabul qilishi haqidagi tushunchalarida sezilarli farq aniqlandi. Natijada, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari juda muhim degan xulosaga kelishimiz mumkin va davlat va xususiy sektorning xususiy sheriklik loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish asosiy omil sifatida qarashimiz mumkin. Quyida so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalarni ko'rib chiqamiz (4-jadval).

4-jadval.

Malayziyada so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalar (mln AQSH dollarida)⁶

| LOYIHA NOMI | SEKTOR | AMALGA OSHIRILGAN YILI | INVESTITSIYA (mln AQSH dollarida) |
|---|---------|------------------------|-----------------------------------|
| KBJ Hecmy quyosh zavodi | Elektr | 2019 yil | 60.00 dollar |
| Bukit Selambau Quyosh zavodi | Elektr | 2019 yil | 35.03 dollar |
| Jeram WtE zavodi | Elektr | 2018 yil | 244.10 dollar |
| Gambang quyosh fotoelektr zavodi | Elektr | 2018 yil | 71,85 dollar |
| Kuantan PV Quyosh zavodi | Elektr | 2018 yil | 71.40 dollar |
| Pengerang terminalining II bosqichi | Portlar | 2017 yil | 1,543.00 dollar |
| Merchang, Jasin va Gurun Quyosh xo'jaliklari | Elektr | 2017 yil | 293.00 dollar |
| Quyosh energiyasini boshqarish (Seremban) fermasi | Elektr | 2017 yil | 69.30 dollar |
| Sendayan issiqlikni tiklash zavodi | Elektr | 2017 yil | 5.00 dollar |
| Padang Serai biogaz zavodi | Elektr | 2017 yil | 3.00 dollar |

⁶ <https://pppknowledgelab.org/guide/sections/83-what-is-the-ppp-reference-guide>

4-jadvaldan shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda Malayziyada davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriyotgan loyihalari asosan elektor-energiyasini olishda quyosh va biogas kabi yangi linyalarni ishga tushurish va Pengerang terminalining II bosqichini ishga tushurishga mo'ljallangan loyihalar hisoblanadi.

Uchunchi ko'rib chiqadigan davlatimiz Turkiya hisoblanadi. Loyihalarni moliyalashtirish davlat-xususiy sheriklik modellaridan keng foydalanish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlat-xususiy sheriklik modellari, davlat sektori infratuzilmasini sotib olish va saqlash vositasi sifatida tobora ommalashib bormoqda. Turkiyada davlat sektori ushbu sheriklikdan ijtimoiy infratuzilma loyihalari, shu jumladan maktablar, kasalxonalardan tortib to ijtimoiy uylarga yoki davlat idoralariga qadar yoki transport, transport yo'llari, tunnellar, ko'priklar, temir yo'llar, aeroportlar yoki mudofaa vositalari kabi boshqa xizmatlar uchun foydalanmoqda. Biroq rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribalari mavjud iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy muhitga qarab farq qiladi. Turkiyadagi davlat-xususiy sheriklik modeli Evropadagi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda boshqa evolyutsion jarayonni boshidan kechirdi. 1980-yillardan beri turli xil huquqiy kelishuvlar amalga oshirilgan bo'lsada, ushbu me'yoriy hujjatlar muayyan sohalar va loyihalarga muvofiq tayyorlangan va davlat-xususiy sheriklik qonunchiligining asoslari va afsuski, aniq belgilanmagan. Turkiyada davlat-xususiy sheriklikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun keng qamrovli qonunchilik bazasiga ehtiyoj bor. Bundan tashqari, xaridlarning raqobatbardosh va oshkora tartib-qoidalariga ega bo'lgan markaziy davlat muassasasi birinchi o'ringa qo'yilishi zarur bo'lgan masalalardan biridir. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari ko'pincha juda katta investitsiya xarajatlariga ega bo'lgan uzoq muddatli loyihalar bo'lganligi sababli, rejalashtirilgan muvaffaqiyatga erishish uchun loyihalar uchun qonuniy asos aniq belgilanishi kerak. Bunga qo'shimcha ravishda, davlat sektoridagi tegishli menejerlar va xodimlar, shuningdek xususiy sektordagi pudratchilar o'zlarining institutsional imkoniyatlarini loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish sohasida rivojlantirishlari juda muhimdir. Quyida so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalarni ko'rib chiqamiz (5-jadval).

5-jadval.

Turkiyada so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalga oshirilgan loyihalar (mln AQSH dollarida)⁷

| LOYIHA NOMI | SEKTOR | AMALGA OSHIRILGAN YILI | INVESTITSIYA (mln AQSH dollarida) |
|---|---------------|------------------------|-----------------------------------|
| Saros shamol stansiyasi | Elektr | 2020 yil | 183,65 dollar |
| Kiyikoy shamol stansiyasini kengaytirish | Elektr | 2020 yil | 74.00 dollar |
| Akkus shamol stansiyasi | Elektr | 2020 yil | 14.50 dollar |
| Bioden biogaz qurilmasi | Elektr | 2020 yil | 11,25 dollar |
| Ilis Enerji biogaz zavodi | Elektr | 2020 yil | 11,25 dollar |
| EFELER geotermik elektr stantsiyasining quvvatini kengaytirish (97,6 MVt) | Elektr | 2019 yil | 350.00 dollar |
| Alpaslan II | Elektr | 2019 yil | 300,95 dollar |
| Tekirdağ portini modernizatsiya qilish va kengaytirish | Portlar | 2019 yil | 127.80 dollar |
| Kocaeli temir yo'l terminali | Temir yo'llar | 2019 yil | 86.00 dollar |
| Gazi 9 shamol xo'jaligi | Elektr | 2019 yil | 65,00 dollar |

5-jadvaldan shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda Turkiyada davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriyotgan loyihalari asosan elektor-energiyasini olishni yangi linyalarini ishga tushurish, portlarni modernizatsiya qilish va kengaytirish va yangi temir yo'l terminalini ishga tushurishga mo'ljallangan loyihalar hisoblanadi.

To'rtinchi ko'rib chiqadigan davlatimiz Qozog'iston hisoblanadi. Qozog'istonda davlat-xususiy sheriklik 1991 yildan boshlab yo'lga qo'yilgan. Davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik rivojlanishini quyidagi besh bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

⁷ <https://pppknowledgelab.org/guide/sections/83-what-is-the-ppp-reference-guide>

Birinchi bosqich - faqat xorijiy investorlar uchun davlat-xususiy sheriklik qonunchilik bazasi (1991-1993-yillar);

Ikkinchi bosqich - davlat-xususiy sheriklikga oid qonunchilik bazasi va "uchuvchi" loyihalarning yetishmasligi (1994-2005-yillar);

Uchinchi bosqich - huquqiy va institutsional asoslarning shakllanishi (2006–2015-yillar);

To'rtinchi bosqich - davlat-xususiy sheriklikni faol ravishda tarqatish: asosiy e'tibor miqdorga qaratilgan (2016-2018-yillar);

Beshinch bosqich- davlat-xususiy sheriklik doirasida besh-tuzatishlar (Five-Adjustments) qattiq talablar (2019 – bugunga qadar). Hukumat nafaqat davlat-xususiy sheriklik uchun yaxshi tashkil etilgan huquqiy (ya'ni qattiq qonun) va institutsional asoslarni belgilabgina qolmay, balki o'zlarining yumshoq qonunchiligida⁸, shu jumladan Qozog'iston-2050 strategiyasida (*Nazarboyev, 2012*) davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga sodiqligini rasman tasdiqladi (*Nazarboyev, 2012 yil*) va 2025 yilgi strategik rivojlanish rejasi tasdiqlagan. Ammo 2019 yilga kelib, barcha asosiy manfaatdor tomonlar uchun Qozog'istonda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish noto'g'ri yo'nalishda ketayotgani tobora ko'proq ayon bo'ldi, chunki davlat-xususiy sheriklik siyosati va boshqaruvi samarasiz bo'lib, ko'pincha davlat qarzlarini yashirish uchun ishlatilgan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmining to'g'ri ishlamasligi muammolari shu qadar keskinlashdiki, 2019 yilda Qozog'iston Prezidenti janob Qassim-Jomart Tokayev Qozog'istonda davlat-xususiy sheriklikning butun kontseptsiyasi obro'sizlanganligini tan oldi (*Tokayev, 2019*). Quyida so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalaga oshirilgan loyihalarni ko'rib chiqamiz (6-jadval).

6-jadval.

Qozog'istonda so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi amalaga oshirilgan loyihalar (mln AQSH dollarida)⁹

| LOYIHA NOMI | SEKTOR | AMALGA OSHIRILGAN YILI | INVESTITSIYA (mln AQSH dollarida) |
|--|---------|------------------------|-----------------------------------|
| Qarag'anda quyosh stansiyasi II bosqich | Elektr | 2020 yil | 64,48 dollar |
| Nura quyosh zavodi | Elektr | 2019 yil | 158,10 dollar |
| Janatas shamol elektr stantsiyasi | Elektr | 2019 yil | 136.20 dollar |
| M-KAT Quyosh PV elektr stantsiyasi | Elektr | 2019 yil | 118,00 dollar |
| Chulaqqo'rg'on Quyosh PV elektr stantsiyasi | Elektr | 2019 yil | 75.00 dollar |
| Nomad Quyosh zavodi | Elektr | 2019 yil | 33,80 dollar |
| Zhangiztobe quyosh elektr stantsiyasi loyihasi | Elektr | 2019 yil | 22,50 dollar |
| Zhanakorgan Solar 1 PV zavodi | Elektr | 2019 yil | 10.00 dollar |
| Katta Olmaota halqa yo'li | Yo'llar | 2018 yil | 740,00 dollar |
| Baykonur quyosh elektr stantsiyasi | Elektr | 2018 yil | 52.40 dollar |

6-jadvaldan shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda Qozog'istonda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriyotgan loyihalari asosan elektor-energiyasini olishni yangi linyalarini ishga tushurish va yangi katta Olmaota halqa yo'lni ishga tushurishga mo'ljallangan loyihalar hisoblanadi. Shuningdek, 2020 yilda bor yo'g'i bir dona Qarag'anda quyosh stansiyasi II bosqichini ishga tushirilganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, 2020 yilda Qozog'iston COVID-19 pandemiyasining ta'siri va neft narxining 20 yillik eng past darajaga tushishi tufayli katta iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga, mahalliy valyutaning qadrsizlanishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qisqarishi va davlat byudjetining qisqarishiga olib keldi. Bu yomonlashib borayotgan davlat infratuzilmasiga sarmoyalarni jalb qilish zaruratini yanada keskinlashtirmoqda va hukumat endi davlat xizmatlari hajmi va sifatini saqlash bo'yicha

⁸ Public-private partnership monitor. Available via <http://dx.doi.org/10.22617/TCS179134-2>. Accessed 4 April 2020.

⁹ <https://pppknowledgelab.org/guide/sections/83-what-is-the-ppp-reference-guide>

qiyin savollarga javob topish uchun yanada katta bosim o'tkazmoqda. Shu sababli, Qozog'iston hukumati yaqin kelajakda davlat-xususiy sheriklik siyosati va uni amalga oshirish usullarini qayta tiklash bo'yicha choralar ko'rish kerak.

Beshinchi ko'rib chiqadigan davlatimiz O'zbekiston hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi 25 yilda amalga oshirilgan davlat-xususiy sherikligining turli shakllari asosan iqtisodiyotning ayrim sektorlarigagina tegishli bo'ldi. Bunday loyihalar ko'proq neft-gaz va kon sanoatida amalga oshirildi. Bu mazkur sektorlarga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan xavfsizroq deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitim mineral resurslar bilan bog'liq sektorlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sherikligining eng ko'p qo'llangan shakllaridan biridir. Davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikda yagona huquqiy mexanizm mavjud emasligi respublikada davlat-xususiy sherikligi yaxshi rivojlanmaganining asosiy sabablaridan biridir. O'zbekistonda xususiy sektorni ijtimoiy, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi qurilishi va modernizatsiyasiga jalb qilish uchun chora-tadbirlar va mexanizmlarni faol joriy etish 2017-yilda boshlandi. Davlat-xususiy sherikligining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish yo'nalishlaridan biri deb belgilangan edi (Farmon, 2017).

O'zbekistonda davlat-xususiy sherikligining rivojlanishini kuzatadigan bo'lsak:

- ilk bor 2017 yilning iyun oyida "Davlat-xususiy sheriklik" to'g'risidagi qonunning ilk loyihasi ishlab chiqildi va e'lon qilindi;

- 2018 yilning aprel oyida esa Prezidentning davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tizimini rag'batlantirish va rivojlantirish to'g'risidagi qarorni qabul qilindi;


- 2018 yilning noyabr oyida esa davlat-xususiy sheriklik to'g'risida ikkinchi qonun loyihasi e'lon qilindi va shu oyning o'zida Prezidentning suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalarini boshqarish va ulardan foydalanishda xorij tajribasini, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida joriy qilish to'g'risidagi qarori qabul qilindi;

- 2019 yilning fevral oyida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida uchinchi qonun loyihasi e'lon qilindi;

- 2019 yilning mart oyida esa O'zbekiston hukumati Birlashgan Arab Amirliklari energetika va sanoat vazirligi hamda "Mubadala Utilities" kompaniyasining bir qator IESlarni davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan holda xususiylashtirish va yangilarini qurish loyihasini qo'llab-quvvatladi;

- 2019 yilning aprel oyida Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish to'g'risida Prezident Farmoni qabul qilindi;

- 2019 yilning may oyida "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi va ko'plab xorijiy va mahalliy kompaniyalar bilan muzokaralar o'tkazilishi jadallashdi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni sohalar kesimida (sonda)¹⁰

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda DXSH sohasida 66 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Har bir yirik loyiha mazkur sohada ulkan tajribaga ega xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshiriladi. Ayni paytdagi mavjud loyihalarning tahminiy qiymati 5,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ma'lumotlari.

5. Xulosa va takliflar.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tahlillarimizdan va quyida sanab o'tadigan kamchiliklardan mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik sohasini rivojlantirishda qonunchilik bazasini mustahkamlashda tender savdolarini o'tkazishda, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tuzish va boshqarishda alohida e'tibor berilsa, sohada amalga oshirilayotgan loyihalarimizning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi:

- davlat xususiy sheriklik loyahasini amalga oshirida qonunchilik bazasini mustahkamlashimiz kerak masalan talim sohasida davlat xususiy sheriklik loyahasini amalga oshirishda qonun hali qabul qilinmagan(M.Aliqulov, 2019);
- infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda davlat xususiy sheriklik mexanizimini samarali qo'llaydigan va boshqara oladigan davlat organlarining professionalligi va tajribasi yo'qligi va boshqalar(Kang-Soo Kim va boshqalar, 2018);
- mamlakatlar bo'ylab tanlangan kontsessiyalarga turli xil yondashuvlar tufayli kontsessiyalarni joriy etish va duch keladigan muammolar;
- davlat xususiy sheriklik loyahasini amalga oshirida ishonchli sherik topishning qiyinligi;
- loyihalar bo'yicha tender savdolari o'tkazishda ishtirokchilarning (raqobatchilarni) kamligi yoki deyarli yo'qligi;

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etishda va mamlakatimizda davlat xususiy sheriklik amaliyotini takomillashtirishda quyidagi takliflarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- davlat xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarga imtiyozlar berish tizimini takomillashtirish kerak, sababi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda berilayotgan imtiyozlar bizni mamlakatnikiga qaraganda bir muncha ko'proq va investorlar uchun ham qulayroqdir(Xitoy, Rossiya).
- davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda pensiya fondlarini, jamg'armalarini jalb qilish kerak;
- davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda davlat ishtiroki tizimini takomillashtirish kerak;
- davlat xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda maksimal darajada xatarlarni hisoblash tizimini joriy etish va takomillashtirish kerak, sababi bu amaliyot mamlakatimizda yangi amaliyot hisoblanadi.
- davlat xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda, yangi moliyalashtirish manbalarini rag'batlantirish kerak;
- mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun ijtimoiy infratuzilma loyihalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim mussasalari, maktablar, kasalxonalar ilmiy laboratoriyalar, ijtimoiy uylar (talabalarga turar joylari), pullik yo'llar, temir yo'llari, aeroportlar va boshqa sohalardagi yirik loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida iqtisodiyotdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni barataraf etishda davlat xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalar, qolgan turdagi shakllariga qaraganda bir necha barobar samaraliroq ekanligi so'zimizning tasdig'idir.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Aliqulov M. (2019) "Development of state private partnership: problems and prospects," International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 4, Article 15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss4/15>

European Investment Bank (2020) URL: <http://www.eib.org/epec/>.

Kang-Soo Kim, Min-Woong Jung, Mee-Soo Park, Yoo-Eun Koh, and Jin-Oh Kim (2018) "Public-private partnership systems in the Republic of Korea, The Philippines, and Indonesia" october 2018.

National Council for Public-Private Partnerships (2020) URL: <http://www.ncppp.org/>.

Nazarbayev N. (2012). Strategy Kazakhstan-2050: New political course of the established state. Available via <https://strategy2050.kz/en/page/multilanguage/>. Accessed 20 April 2020.

Tokayev K.J. (2019) Speech of the Head of State at the meeting of the government, July 15 [in Russian].

Usman Ahmad, Yusnidah Ibrahim, Mohd Sobri Minai (2017) "Public private partnership

in Malaysia: the differences in perceptions on the criticality of risk factors and allocation of risks between the private and public sectors" *International review of management and marketing* Vol 7, No 2 (2017)

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni PF-4947-son. (Decree (2017) Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan" No. PD-4947.)

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537 (Law (2019) Law of the Republic of Uzbekistan "On Public-Private Partnership" No. 537)

Агазарян Н.В. (2016) "Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства" (Aghazaryan N.V. (2016) "Analysis of world experience in the application of the mechanism of public-private partnership.") *Public-Private Partnership* 3(2):151

Андреева Е.С., Дырдонова А.Н., Стародубова А.А., Зинурова Р.И. (2014) "Анализ распределения проектов государственно-частного партнерства по отраслям экономики" *Вестник казанского технологического университета* Том: 17 Номер: 3 Год: 2014 Страницы: 325-328 (Andreeva E.S., Dyrdonova A.N., Starodubova A.A., Zinurova R.I. (2014) "Analysis of the distribution of public-private partnership projects by sectors of the economy" *Bulletin of Kazan Technological University* Volume: 17 Issue: 3 Year: 2014 Pages: 325-328)

Болдырев А.Н. (2018) "Государственно-частное партнерство: сущность, функции и мировая практика". *Вестник Университета*. 2018. №1. С. 14–19. (Boldyrev A.N. (2018) "Public-private partnership: essence, functions and world practice." *University Bulletin*. 2018. No. 1. 14-19 p.)

Иванов В.Ю. (2018) "Зарубежный опыт применения механизма государственно-частного партнерства в реализации инфраструктурных проектов" (Ivanov V.Yu. (2018) "Foreign experience of using the mechanism of public-private partnership in the implementation of infrastructure projects") *Siberian Journal of Economics and Management*, Vol. 7, No 4.

Кельбах С.В. и Сигова М.В. (2015) "Анализ международной практики реализации и финансирования проектов государственно-частного партнерства в развитии региональной инфраструктуры" *Управленческое консультирование*. (9)/54-63. (Kelbakh S.V. and Sigova M.The. (2015) "Analysis of international practice of implementation and financing of public-private partnership projects in the development of regional infrastructure" *Management consulting*. (9) / 54-63.)

Крыканов Д.Д. (2017) "Оценка осуществимости проектов государственно-частного партнерства: анализ российской и международной практики" (Krykanov D.D. (2017) "Assessing the Feasibility of Public-Private Partnership Projects: Analysis of Russian and International Practice") *June Public-Private Partnership* 4(2)/111

Юрьева Т.В. (2020) "Проекты государственно-частного партнерства: признаки и основные формы" *Международный научно-исследовательский журнал*. 2020. № 7 (97) Часть 3. С. 185-190. (Yurieva T.V. (2020) "Projects of public-private partnership: signs and main forms" *International research journal*. 2020. No. 7 (97) Part 3. 185-190 Page.)

Гафурова Г.Т. (2013) Зарубежный опыт развития механизмов государственно-частного партнерства// *Финансы и кредит*- № 48 (576) – 2013, С. 62-63 (Gafurova G.T. (2013) Foreign experience in the development of public-private partnership mechanisms // *Finance and Credit*- № 48 (576) - 2013, pp. 62-63)